

## SHARTNOMA № 93/5

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

“24” 01 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan **“FARG'ONA DORI-DARMON” aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov** vakilligida kelgusida **“Ijrochi”** va ikkinchi tomondan **Rishton tuman tibbiyot birlashmasi** boshlig'i **A.T.Усмонов** vakilligida kelgusida **“Buyurtmachi”** o'rtasida har ikki tomonning amaldagi **“Nizom”**lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va **“Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti.

1.1 **“Ijrochi” “Buyurtmachi”**ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati 12622860 (O'n ikki million olti yuz yigirma ikki ming sakkiz yuz oltimish) so'm

(summa raqam va so'z bilan yoziladi)

bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida **“Tovar”** deb nomlanadi) ni spesifikasiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. **“Ijrochi”** esa o'z navbatida ushbu **“Tovar”** lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida **“Buyurtmachi”** ga to'laydi.

### II. To'lov tartibi.

2.1. **“Buyurtmachi”** shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 3786858 so'm miqdorda **“Ijrochi”** ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan **“Tovar”** lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

### III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

#### 3.1. **“Ijrochi” ning huquq va majburiyatlari:**

3.1.1. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Tovar”** umumiy narxining 30 foizi **“Ijrochi”** ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ni **“Tovar”** bilan ta'minlaydi.

3.1.2. **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ga tegishli hujjatlar asosida **“Tovar”**ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** ga qulaylik yaratish maqsadida **“Tovar”**ni o'z transport vositalarida **“Iste'molchi”** ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati **“Ijrochi”** tomonidan qoplanadi.

3.1.4. **“Ijrochi”** ning transport vositasida yetkazilgan **“Tovar”** ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan **“Buyurtmachi” “Ijrochi”**ning vakili ishtirokida **“Tovar”** yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi **“Ijrochi”** tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. **“Ijrochi”** Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan **“Tovar”**lar bilan **“Buyurtmachi”**ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz **“Buyurtmachi” “Tovar”** ni olishga haqli emas. Transport harajatlari **“Buyurtmachi”** tomonidan qoplanadi.

#### 3.2. **“Buyurtmachi”ning huquq va majburiyatlari:**

3.2.1. **“Ijrochi” “Buyurtmachi”** dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan **“Tovar”** uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, **“Tovar”**ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. **“Buyurtmachi” “Ijrochidan”** dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan **“Tovar”**larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan **“Tovar”** sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, **“Buyurtmachi” “Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”**gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq **“Tovar”**ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, **“Ijrochi”**dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan **“Tovar”** qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

### IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, **“Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. **“Buyurtmachi”** tomonidan **“Ijrochi”**ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni **“Buyurtmachi”** ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda **“Buyurtmachi”**dan O'zbekiston Respublikasi **“Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”** gi



Qonuning 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi

4.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuning 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortik bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

#### V. Fors-major xolatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

#### VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

#### VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

#### VIII. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

##### "Ijrochi"

«FARG»ONA DORI-DARMON» AJ

Rishton tumani Farg'ona ko'chasi 8-uy

x/p: 20208000200215318018

Milliy bank Rishton tumani

MFO: 00946 INN 200153801

OKONX: 71212OKOHX 71212

QQS tulovchi :№ 330050016140

Tel./Fax:(73) 4523170

«FARG`ONA DORI-DARMON» AJ

boshqaruv raisi:

M.A.Tursunov

##### "Buyurtmachi"

Rishton tuman tibbiyot birlashmasi

manzil: Al-Roshidoni 276 uy

x/r: 100022860302247072110054001

bank:Markaziy Bank Toshkent sh.

STIR: 200181854 OKONX 91511

G'aznachilik bo'linmasi nomi:

Rishton

Markaziy bank Toshkent shahar Bosh

boshqarmasi XKKM

Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010



MFO: 00014 STIR: 201122919

Tel: \_\_\_\_\_

Rahbar:

A.T. Усмонов

(imzo: muxr F.I.O.)






# СПЕЦИФИКАЦИЯ ЦЕН.

Приложение к договору

Поставщик: "Фаргона Дори-Дармон" АЖ 8-сон дорихона  
 Покупатель: РИШТАН ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ

№№	Наименование товаров и услуг.	Производитель	ЕдИзм	Серия	Колво.	Цена			Стоимость товаров	Срок годности
						ОПТ ЦЕНА	НДС	Реализация		
1	АНТИСЕПТИК ДИРУК	ООО ОКС МАССАГЕТ	ФЛ	11020	36	4200	630	4830,00	173880,00	Окт.23
2	ДЕЗИНФ. СТРЕД. SANMED "MAXI DES" 125.0	ООО PUREFEEF	УП	11.20IG01	28	6900	1035	7935,00	222180,00	11.2023
3	ПЕРЧАТКА СТЕРИЛЬН РАЗМЕР 7, 7,5	ООО ANSIKENT SOF SANOAT	ПАР	00002	4 430	2760	0	2760,00	12226800,00	07.2024
<b>Итого к оплате</b>									<b>12622860,00</b>	

от Поставщика: \_\_\_\_\_  
 подпись



от Покупателя: \_\_\_\_\_  
 подпись



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№ KW8371763044

1. Loyihaning turi: SHARTNOMA № 93/5

2. Loyihaning nomi:

“FARG’ONA DORI-DARMON” aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov va “Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi” rahbari A.Usmonovlar o’rtalarida, umumiy qiymati 12622860 (O’n ikki million olti yuz yigirma ikki ming sakkiz yuz oltimish) so‘m bo‘lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni etkazib berish yuzasidan 2022 yil yanvar oyida tuzilgan № 93/5-sonli shartnoma

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Loyiha Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 24.01.2022 yilda kiritilgan.

4. Loyiha bo‘yicha taklif:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra

**XULOSA:**

Loyiha O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.09.2018 yildagi PQ-3953-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 122-moddasi 8-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



D.Aliboyev